



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xamidova Diyora Rustam qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatini shakllantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlarini hamda o'sib kelayotgan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash to'g'risida tavsiyalar ko'rsatilgan. Bundan tashqari ta'lim va tarbiyani yanada shakllantirish va ta'lim sifatini oshirish yuzasidan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, tarbiya, faoliyat, ijodkorlik, rivojlanish, xususiyat, bilim, ko'nikma, malaka.

Аннотация. В данной статье показаны педагогические и психологические особенности формирования творческой деятельности младших школьников, а также рекомендации по воспитанию подрастающего поколения в совершенном человеке. Кроме того, даны рекомендации по дальнейшему формированию образования и воспитания и повышению качества образования.

Ключевые слова. Образование, воспитание, деятельность, творчество, развитие, характеристика, знания, умения, навыки.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni shakllantirishda nafaqat pedagogik jarayon, balki psixologik jihatdan ta'sir o'tkazish ham muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishning asosiy maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodni aqlan tiran, keng fikrlovchi, barkamol, yetuk, ya'ni komil inson qilib shakllantirishdan iborat. Albatta ushbu jarayon orqali biz ta'lim-tarbiya samaradorligini o'quvchilarning qay darajada bilim, ko'nikma va malakaga ega ekanliklari, tarbiyalanganlik darajalari, mustaqil bilim olishga, hayotda o'z o'rinlarini topishga ko'maklashamiz. Aytishimiz mumkinki shaxsning shakllanib borish sur'ati unga xos ayrim xususiyatlarning to'la va butun holda barqaror paydo bo'lib borishi uning mehnatda, o'qishda, o'yinda, muloqotda va yurish-turish madaniyatida yaqqol ko'rinadi. O'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish bilan birgalikda ularning shaxsiy xislatlarini ham boyitib borishimiz, ularda vatanni sevish, aql-farosatlilik, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik, kamtarinlik, odamiylik, dilkashlik, uddaburonlik, o'z bilimini oshirishga intilishlarini rivojlantirib borish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari bu ularda tarbiya orqali ta'limni shakllantirishning ustuvor vazifalarini belgilaydi va quyidagi xususiyatlarni shakllantiradi.



- ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi,

-o'z diqqat e'tiborini taqsimlay olishi

-fikrlash doirasini kengaytirilishi

-ko'zatuvchanlikning oshirilishi

-tanqidiy munosabatlarni sharqlay belish

-jamo'a bilan ishlash va o'zini tuta bilish kabi bir necha pedagogik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Albatta bu vazifalarni shakllantirishda o'qituvchi asosiy rol o'ynaydi va o'qituvchining ham bir necha vazifalarini belgilaymiz.

- pedagogikaning asoslarini va psixologiya asoslarini bilishi,

- etnopsixologik bilimlarni egallashi,

-hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi,

- hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallaganligi,

- maktab yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi,

-o'z fanini o'qitish metodikasini bilishi, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samaradorligini bilishi,

- ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi,

- dars mashg'ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi bilan birgalikda o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi,

-ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning bilimi o'sishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi, hamda pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtira olish.

Ijodkorlik insonning nafaqat qiziqishidan kelib chiqadigan jarayon bo'lishidan tashqari bu kelajakda o'z o'rnini topishida va jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'sha olishida juda muhim rol o'ynaydigan faoliyat turidir. Pedagogika ta'lim va tarbiya orqali inson o'zidagi bilim, malaka va ko'nikmalarini mukammal shakllantirishi va o'zidagi qobiliyatlarni rivojlantirish bilan birgalikdan ulardan to'g'ri foydalana olish imkoniyatini bera oladigan fan hisoblanadi. Insondagi aql-idrok uning bilim doirasidan to'g'ri va oqilona foydalana olish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'z navbatida bolada o'z faoliyatini rejalashtirishni bilishi, o'quv maqsadlarini rejalashtira olishi; o'zining ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi xislatlari va fantaziya (xayol)ning rivojlanishi, o'zini qo'lga olishi, o'zini tuta olishi kabi xislatlarni shakllantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari o'z navbatida o'quvchilarning ko'plab qobiliyatlarini, shu jumladan, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim asos vazifasini o'taydi, chunki har qanday yangi g'oyani taklif qilishdan ilgari qaralayotgan sohani batafsil o'rganib chiqish, yangi axborotlarni topish va uni tavsiya etilayotgan echim bilan bog'lashni o'rganish lozim bo'ladi. Ijodiy faoliyat boshqa faoliyat turlari kabi o'z motivatsiyasi, maqsadi, predmeti, vositalari, usullari, mahsuli va natijasini aks ettiruvchi jarayondir. Ijodiy faoliyatning predmeti shaxs



rivojlanishining sharti va asosi bo'lmish ijtimoiy madaniyatni singdirishga qaratilgan o'quv faoliyatining manbasi hisoblanadi. Ijodkorlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu motivatsiya hisoblanadi. Ijodiy faoliyatning rivojlanishi natijasi asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda o'quvchilarning shaxsiy, intellektual rivojlanishi, ularni o'quv faoliyatining subyekti va shaxs sifatida shakllanishi hisoblanadi. Ijodiy faoliyatda ham o'quv faoliyatdagi kabi motivatsion soha ajratilib ko'rsatiladi. Bu tashqi va ichki motivlardir. Tashqi motiv sifatida biror-bir narsaga erishish istagini, ichki motiv sifatida esa o'z faoliyatining jarayoni va natijasiga e'tibor berishni misol qilish mumkin. Bolalarning nimaga qiziqishi, intilishi va ulardagi qobiliyatlarni shakllanishida o'qituvchi pedagog yetakchi o'rin egallaydi. Bolalarda ijodiy qobiliyat irsiyatdan, muhitdan va qiziqishdan kelib chiqadi. Boshlangich sinf o'quvchilaridagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabati o'qituvchi shaxsining faolligi va o'quvchilarga pedagogik va psixologik jihatdan ta'sir o'tkaza olishi, shuningdek, bir vaqtning o'zida uning o'quvchilarga bo'lgan munosabati jarayonida xulqiga ta'sir ko'rsatuvchi operatsional jihat bilan belgilanishini qayd qilishimiz mumkin. Bu esa o'qituvchi va o'quvchilarning pedagogik muomaladagi turli xil jihatlarini baholash holati ham o'rganilgan. Pedagog doimo psixologik jihatdan o'z ustida ishlashi kerak. U muntazam ravishda psixologiya fanining turli yo'nalishlaridagi eng yangi yutuqlar bilan tanishib borishi darkor, ular tarbiya va ta'lim bilan bevosita va bilvosita bog'liqdir. O'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishda ularning psixologik xolatlarini ham o'rganish juda muhimdir. Albatta bu jarayonda pedagog o'quvchilarga psixologik jihatdan ham ta'sir o'tkaza olishi zarur. Pedagogning kasbiy faoliyati davomida juda zarur jiddiy jihat - bu o'zo'zini boshqarishdir, ya'ni o'z psixik holati va xulq-atvorini boshqara olish qobiliyati, murakkab pedagogik holatlarda muqobil harakatlana olishidir. O'z-o'zini boshqarishning psixologik asoslari bilish jarayonini o'z ichiga oladi: Sezgi, idrok, diqqat, xayol, tafakkur, xotira, nutq shuningdek shaxs xislatlari - xulq atvori, emotsional holatlar kiradi. Ushbu psixik jarayonlarda o'z-o'zini boshqarish odam xususiyatlari va holatlari, uning irodasi va ichki tuyg'ulari bilan bog'liqdir. Ma'lumki, ichki tuyg'u barcha psixik holatlarni boshqarishda erkinlik asosi bo'lib xizmat qiladi, iroda bo'lsa xatti-harakatlar quvvati va yo'nalishlarini ta'minlaydi. Ongli ravishda fikrlashni ham boshqarish, uni yanada samaroqliroq qilish mumkin. O'quvchilarda fikrlash jarayonining o'sib borishi ulardagi kreativlikni shakllantirish o'z-o'zidan yangi g'oyalarni tug'ilishiga va ijodkorlikni rivojlantirishni yuzaga keltiradi. Bolalar tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarda, ular kattalarning tajribasini qanday o'zlashtirganliklarini tekshirib ko'rishlari, o'z xulqlarini boshqa bolalarning hatti-harakatlari bilan bevosita solishtirishlari, ular bilan bahs va munozaralarda nimani va qanday amalga oshirish kerakligini aniqlashlari mumkin. Ushbu jarayonda o'qituvchi eng avvalo o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar faolligini oshirishni esdan chiqarmasligi, yuzaga kelgan muammolarni mustaqil yechishga o'rgatishi, o'quvchi tashabbuskorligi va ijodkorligi asosida o'zining kimligini namoyish etishiga



yordamlashishi zarur. Buning uchun o'qituvchi shaxsiy hamda kasbiy sifat va fazilatlarini to'liq egallagan bo'lishi lozim, bunday o'qituvchilar o'quvchilar bilan ko'proq do'stona muloqotda bo'ladi, o'zaro fikr almashadilar, mavzuga doir muammoni tahlil qiladilar va bir qarorga keladilar. O'qituvchi bu o'rinda butun e'tiborini mavzu mohiyatini o'quvchilarga singdirishga qaratib, o'quvchilar e'tiborini kechinmalarini va o'zlashtirish imkoniyatlarini alohida e'tiborga oladi. O'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan bilimdonlik, ijodkorlik, mustaqillik hamda pedagogik faoliyati uchun mas'uliyat va javobgarlikni chuqur his etish o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashning eng muhim omillaridir. . Ijodiy shaxsning shakllanishini amalga oshirilgan ijodiy faoliyatga va olingan ijodiy natijalarga mos keladigan shaxsning shakllanishi va rivojlanishi deb ta'riflash mumkin. Bundan tashqari ijodkorlik o'quvchilarda havas, istak va xoxishdan kelib chiqadigan jarayon bo'lib, ushbu jarayon orqali o'quvchilarda o'z oldilariga maqsad qo'ya bilish va biror bir kasbga bo'lgan qiziqishlarini ortiradi. Jamiyat va davlat oldidagi talablardan kelib chiqib, o'quvchilarning umumta'lim maktablaridagi tahsili davomida intellektual imkoniyatni rivojlantirish ishlarini muvaffaqiyatli olib borish zarur. Bu esa tarbiya jarayoniga psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo'llashni, zamon talabi darajasida mutlaqo yangi tarbiya tizimini yaratishni talab qiladi.

Har bir o'quvchiga, uning shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, uning intellektual imkoniyatini rivojlantirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga biror psixologik yoki pedagogik uslubni qo'llash murakkab jarayondir. Ushbu jarayon natijasida ta'lim sifati oshadi va rivojlanish jadallashadi.

Muayyan takomillashgan pedagogik yoki psixologik uslubni qo'llash, uni mantiqiy-nazariy jihatdan to'liq anglab olish va amaliyotga qo'llashgacha bo'lgan murakkab jarayonga qaraganda – jarayonning o'zini loyihalashtirish eng qulay va samarador uslubdir. Bu esa har bir o'quvchiga individual yondoshish kerakligini ko'rsatadi.

Barchamizga ma'lumki o'quvchilarning ijodiy faoliyati moddiy va ijtimoiy muhitning o'zaro aloqasi jarayonida shakllanib boraveradi. Rivojlanish va faollik bo'lmagan joyda shaxsning qaror topishi va rivojlanishi ham bo'lmaydi. Bunda ijtimoiy aloqalar jamiyat guruh hamda turli jamoalar hayotiga faol kirishib ketish shaxsni shakllantirishning muhim omillari sifatida nomoyon bo'ladi. Takidlash joizki ijodkorlikni shakllantirishda pedagog tamonidan o'tkaziladigan nostandart darslar, interfaoll usullar, teatrlashtirilgan darslar, ijodkorlik darslari bilan birgalikda o'quvchilarni psixologik jihatdan o'rganish maqsadida o'tkaziladigan suhbat darslari ham juda muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI .

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020



2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017.
3. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. — T.: Sharq. 2000.
5. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.
6. Халперн Д. Психология критического мышления. Питер. 2000.
7. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство.- Т. Фан ва ахборот технологиялари, 2006. -167 б.
8. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. –М., 1969. -248 с